

TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI) NING AHAMIYATI VA UNI O'QITISH MASALALARI**ЗНАЧЕНИЕ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА (АНГЛИЙСКОГО) И ВОПРОСЫ ЕГО ПРЕПОДАВАНИЯ В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ****THE SIGNIFICANCE OF A FOREIGN LANGUAGE (ENGLISH) AND THE ISSUES OF ITS TEACHING AT A MEDICAL UNIVERSITY**

*Uzaqova Odinaxon Moxirjon qizi,
Central Asian Medical University tibbiyot universiteti o'qituvchisi, odi378808@gmail.com*

Uzaqova O. M. TIBBIYOT OLIYGOHLARIDA XORIJIY TIL (INGLIZ TILI) NING AHAMIYATI VA UNI O'QITISH MASALALARI. Acta CAMU, 1(ISSN: 2181-4155), 129-134. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7583252>

Annotatsiya: *Ingliz tili hozirgi kundagi eng ommalashgan, har qanday soha vakillari uchun asosiy ehtiyoj tili bo'libgina qolmasdan, O'zbekistondagi ko'plab oliy o'quv yurtlari, maktablar va xattoki, bog'chalarda ham asosiy muloqot tili hisoblanadi. So'nggi o'n yillik davomida belgilangan ta'lim dasturlariga muvofiq turli ta'lim muassasalarida o'rganuvchilarning ilmiy va kasbiy ehtiyojlarini qondirish uchun o'qitilmoqda. Jumladan, tibbiyot sohasi, shifokorlar uchun ingliz tili nafaqat o'qish paytida, balki professional muhitda ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqola asosida yangi barpo etilgan universitetimiz talabalari o'rtasida kichik tadqiqot olib borildi. Tadqiqot davomida bo'lajak shifokorlar uchun xorijiy tilda kommunikativ ko'nikmaning qanchalik darajada ahamiyatli ekanligi, qaysi usullar ular uchun oson va samarali ekanligi o'rganildi. Talabalarining ko'pchilik qismi ushbu tilni egallashlari uchun qo'shimcha to'garaklar va seminarlar olib borilishi tarafdori ekanliklarini ta'kidlagan.*

Kalit so'zlar: *ESP (Aniq maqsadlar uchun ingliz tili), til ehtiyoji, til ko'nikmalari, EMP (Tibbiyot maqsadlari uchun ingliz tili).*

Аннотация: *Английский язык сегодня является не только самым популярным и основным языком потребности среди представителей многих сферы, но и основным языком общения во многих вузах, школах и даже в детских садах в Узбекистане. В течение последних десяти лет его преподают в различных учебных заведениях для удовлетворения научных и профессиональных потребностей студентов в соответствии с установленными образовательными программами. В частности, для врачей медицинского профиля английский важен не только во время учебы, но и в профессиональной среде. На основе этой статьи было проведено небольшое исследование среди студентов нашего вновь созданного университета. В ходе исследования было изучено, насколько важные для будущих врачей навыки иноязычного общения, какие методы для них легки и эффективны. Большинство студентов заявили, что выступают за проведение дополнительных кружков и семинаров по изучению этого языка.*

Ключевые слова: *ESP (английский для специальных целей), языковые потребности, языковые навыки, EMP (английский для медицинских целей).*

Abstract. *English is the most popular language in the present day, the main language of communication for representatives of any sphere, but also the main language of communication in many higher educational institutions, schools and kindergartens in Uzbekistan. Over the past decade, in accordance with the established educational programs, various educational institutions have been trained to meet the scientific and professional needs of learners. In particular, in the field of Medicine, English for doctors is important not only during study, but also in a professional environment. Based on this article, a small study was conducted among students of our newly established university. In the course of the study, it was studied to what extent communicative skills in a foreign language are relevant for future doctors, which methods are easy and effective for them. The majority of students*

have argued that they are in favor of carrying out additional circles and seminars so that they can master the language.

Key words: ESP (English for specific purposes), language need, language skills, EMP (English for medical purposes).

Kirish. Dunyo miqiyosida tillar juda ham ko‘p, lekin ingliz tili shu o‘rinda yetakchi sanaladi. Braj Kachru bundan o‘ttiz yil oldin ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlarni uch halqaga bo‘lgandi [1]. “Ichki halqa”ga (320 – 380 million kishi) AQSh, Birlashgan Qirollik, Avstraliya, ya’ni ingliz tili o‘z ona tilisi hisoblangan davlatlar, “tashqi halqa”ga ingliz tili ularning uzoq o‘tmishiga borib taqaladigan davlatlar – Hindiston va Singapur (150 – 300 million aholi), oxirgi “kengaytirilgan halqa”ga esa 100 – 1000 million aholini o‘zida jamlagan mamlakatlar – Xitoy, Shvetsiya, Turkiya va Argentinani kiritgan. Kachruning bu taxminiy farazlari biz uchun aynan qaysi davlatlarda ingliz tili muhim ekanligini aniqlab bergan, ammo kamchilik jihati, ushbu ma’lumotlar hozirgi kun uchun ancha eskirgan deb aytishimiz mumkin. Bugungi kunda mazkur raqamlar ingliz tili ona tilisi bo‘lmagan davlatlar aholisining ushbu tilda so‘zlashishi hisobiga ortib borayotganligi ingliz tilining xorijiy nufuzini baland ekanligini yana bir isboti hisoblanadi. Ushbu fan butun jahon miqiyosida ilm – fan va zamonaviy texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari tiliga aylandi. Ammo ingliz tilini o‘rganish zamon talabi hamda insoniyat uchun sohaviy ehtiyoj manbayiga aylanib bo‘ldi. Aynan ma’lum bir soha uchun o‘rganish metodikada ESP (English for specific purposes) – Aniq maqsad uchun ingliz tili deb nomlanadi. Maqolamizning asosiy qismi ham aynan ushbu yo‘nalishni tibbiyot talabalari uchun tadqiq etishdan iborat. Hozirgi barcha mukammal va haqiqiy tibbiy manbalar va darsliklarning ko‘pchilik qismi ingliz tilida bo‘lganligi uchun, ularni o‘qish, tushunish, internetdan materiallar qidirib topish, bundan tashqari xorijiy talabalar bilan muloqotga kirishish, chet elda ta’lim olish, xalqaro konferensiyalar va uchrashuvlarda ishtirok etish uchun tilni o‘rganish ahamiyatlidir. Ushbu o‘rganishimizning asosiy maqsadi universitetimiz talabalari uchun ingliz tili qanday ahamiyatli va zarur ekanligi, mashg‘ulot jarayonlari qanday tashkillanishi, o‘quv dasturlarimiz qay tartibda va qanday ehtiyojga qarab tuzilishini tadqiq etishdan iborat. Ushbu vazifalarni bajarishdan oldin talabalar va shifokorlarning shaxsiy fikrlari va qarashlarini anketa so‘rovnomasida tarzida aniqlab oldik.

Anketa savollari:

Talabalarning ingliz tilini bilish darajasi qanday?

Ingliz tili talabalar va doktorlar uchun qaysi sabablarga ko‘ra kerakli va zarur?

Qaysi usullar orqali mashg‘ulotlar, qo‘shimcha darslar olib borilishi muhim?

Maqsad:

- Talabalar va bo‘lajak doktorlarning bu fan yuzasidan shaxsiy fikrlarini aniqlash;
- Ularning ingliz tili faniga bo‘lgan ehtiyojini o‘rganish;
- O‘rganishimiz davomida ESP (aniq maqsadlarda ingliz tili) kursini ularga moslashtirish.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

ESP – amaliy tilshunoslikdagi pedagogik tushuncha hisoblanib, odatda katta yoshli talabalar uchun ingliz tili materiallari va ko‘rsatmalarini o‘rganish ularning bevosita hozirgi va kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishdir. Ushbu kursni yaratishdan oldin, kurs talabalarining ehtiyojlari, xoxishi, ilmiy va kasbiy maqsadlarini aniqlash muhim sanaladi.

Odatda, umumiy ingliz tili sillabuslari grammatika, lug‘at zapasi bilan o‘qitiladi, bunga qo‘shimcha ravishda talaffuz, asosiy til ko‘nikmalari (o‘qish, yozish, gapirish, eshitish) ham faollashtiriladi. Darslar jarayonida fan o‘qituvchisi o‘rganuvchilar uchun oson, qulay va samarali usullarni qo‘llaydi.

Aksincha, ko‘pchilik insonlarda ingliz tilini o‘rganish aniq bir sabab tufayli yuzaga kelishi ham mumkin. Ehtimol ular ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlarda shifokor, xamshira, huquqshunos, uchuvchi yoki shunga o‘xshash kasbiy faoliyat olib borishni xoxlaydi. Ushbu holatda ular ingliz tilini ESP (aniq maqsadlar uchun ingliz tili) orqali o‘zlashtiradilar. Uni quyidagi mutlaq xarakterli xususiyatlari quyidagilar [2]:

- O‘rganuvchilarning aniq maqsadlari uchun yaratiladi;
- Mazmunan (masalan, uning mavzusi) aniq bir sohaga, kasbga yoki mashg‘ulotga aloqador bo‘ladi;
- Sintaksis, leksika, nutq, semantika bo‘yicha faoliyat mos tilga qaratilgan;
- Umumiy ingliz tili bilan qarama – qarshi yo‘nalgan.

Hatchinson va Voterning dastlabki ESP beshta bosqichdan iborat ekanligini ilgari surgan [3]:

Tahlilni ro‘yxatga olish. 1960 – 1970 – yillarda, maqsad ma‘lum bir soha uchun (masalan tibbiyot, elektr injenering) gramatik va leksik xususiyatlarini oydinlashtirish bo‘lgan va keyinchalik o‘qitish metodlari takomillashtirilgan.

Nutq tahlili. Bu bosqich jumla darajasi bilan farqlandi, chunki ESP amaliyotchilari maqsadli sohadagi matn namunalarini tekshirish uchun nutq namunalaridan foydalanganlar. Ular uchun, jumladan, qanday qilib biologiya matni tasviriy, tavsifiy, ifodaviy, tasodifiy hamda klassifikatsiya orqali tashkil qilingani juda ham qiziq hodisa hisoblangan.

Maqsadli vaziyatni tahlil qilish. Mazkur bosqich o‘rganuvchilar ehtiyoji, istaklari va ular istagan muhit tahlili bilan xarakterlanadi. 1980 – yillarda asosiy e‘tibor nafaqat til o‘rganuvchilarning sharoiti, balki tildan foydalanishdagi amaliy jarayonlar bilan ham boyitilgan.

Mahorat va strategiyalar. Ko‘nikma va strategiyalarga bo‘lgan asosiy e‘tibor qaratilishi o‘quvchilarga strategik o‘qish ko‘nikmalarini, jumladan, kontekstdan noma‘lum so‘zlarni taxmin qilish va ular og‘zaki nutqda qanday ma‘no anglatishi, egallashga yordam beradigan materiallar ishlab chiqishga sabab bo‘ldi.

Ta‘limga yo‘naltirilgan yondashuv tilni o‘rganish jarayonlarini tushunishga kengroq e‘tiborni talab qilish orqali oldingi bosqichlardagi tildan foydalanishdagi turli tushunchalardan keskin farqlanadi.

Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, ESP turli sogalarga ko‘ra turlarga ajratiladi. Masalan, EST (fan va texnologiya uchun ingliz tili), EMP (tibbiyot maqsadlari uchun ingliz tili), EAP (akademik maqsadlar uchun ingliz tili) – esse strukturalash, izoh yozish, prezentatsiyalar tayyorlash kabi ko‘nikmalar shakllantiriladi.

“ESP kurslarini o‘qituvchi – pedagoglar qanday tashkillash kerak?” degan savol paydo bo‘lishi tabiiy. Yuqorida biz buni tarixiy analiz orqali izohladik. Devid Vud talabalarni ish jarayoniga tayyorlash uchun til egalarining kundalik ish jarayoniga qo‘llaydigan tayyor til replikalari va formulali strukturalar orqali o‘qitishni muhim deb hisoblaydi [4]. Sinfda talabalar ish jarayonidagi holatlarni til elementlaridan foydalangan holda “role play” tarzida namoyish etgan. Boshqacha qilib aytganda, o‘qituvchi ularni bu usul orqali bevosita gapirish ko‘nikmasini rivojlantirgan.

Genri Emeri esa aviatsion ingliz tilini o‘qitishda talabalarga yo‘naltirilgan holatdagi o‘zgarishni aniqlashni bilish zarur deb hisoblaydi [5]. Masalan, samolyot kokpitlari yoki havo harakatini boshqarish minoralaridan turib, uni professional, xavfsiz boshqarish maqsadida ushbu holatda foydalanadigan tayyor til qolplarini (so‘z va iboralarni) eshitishi, yozib olishi, vaziyatni kuzatib, baholashi mumkin. Ma‘lumotlar bazasi yig‘ishdanda muhimroq tomoni esa, ular mazkur vaziyatda qaysi til ko‘nikmalariga muxtoj ekanligini aniqlab, keyingi darslarda shu holatga asoslanib, “content” yaratishimizdir.

Tibbiyot ingliz tilisi esa yuqori texnik va kontekstga asoslangandir. Ish jarayonida shifokorlar akademik va terminologik lug‘at, jargonlar va odatiy iste‘moldagi so‘zlardan foydalanadi. Ular ko‘p hollarda gapning standard tuzilishiga e‘tibor bermaydi. Tibbiyot ingliz tilisi juda ham yuqori darajadagi ingliz tili hisoblanib, uni asosiy bazadagi (General English) ingliz tili o‘qitish bilan solishtirish xato. Sog‘liqni saqlash tashkiloti xodimlari, talabalari, shifokorlari EMP o‘rganuvchilari deb ta‘riflanadi. Tibbiyot maqsadidagi ingliz tili o‘rgatishning maqsadi faqatgina boshlang‘ich grammatik qurilmalar, qoidalarni o‘rganish emas, balki ijtimoiy va kasbiy faoliyat bilan bog‘liq vaziyatlarda qo‘llaniladigan til ko‘nikmalarini ham egallash tushuniladi [6].

Tibbiyot maqsadidagi ingliz tili kurslari ham xuddi boshqa ESP shakllari singari o‘rganuvchilarning manfaatlari va maqsadlari tufayli shakllantiriladi. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarning muloqot darajasini yaxshilashi kerakligi yuqoridagi fikrimizni tasdiqlaydi [7]. Dars mazmun va muammoli ta‘lim kabi metodologik yondashuvlarga asoslanadi. Chinakam

kommunikatsion muhit yaratish maqsadida zamonaviy texnologik qurilmalarning joriy etilishi darslarning sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida Tibbiy terminlarning berilishi ham kursning tarkibiy qismidir. Qo'shimcha ravishda Grammar – translation (an'anaviy metod) va lug'at o'qitish metodlari ham mavjud [8].

Niyoziy tibbiyotda ingliz tili o'qitish talablari yangicha va zamonaviy yondashuv ekanligiga ishora qiladi [9]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, ushbu yo'nalishning umumiy ingliz tili o'qitishdan farqi sezilarli darajada. Ma'lumki, tibbiyot oliygohlari talabalari mutaxassislik va kasbiy fanlardan katta miqdordagi ma'lumotlar bazasini o'zlashtiradi. Shu o'rinda grammatik va dastlabki strukturalardan farqli kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradigan til sathi o'rganuvchilar uchun eng samarali usuldir. Inglizabon bo'lmagan o'rganuvchilarga ko'mak berish maqsadida talabalar inglizcha tibbiyot jargonlari, tibbiy nutqiy ma'lumotlarni o'qituvchining pedagogik mahorati bilan uyg'unlashtirgan holda o'rganish kutilgan natijani berishi mumkin.

Ko'plab tadqiqotlar natijasida qoidalar, formulalarning o'rniga tibbiy bilimlarga asoslangan ingliz tilini o'qitish o'z isbotini topgan. Jumladan, DuGaz, Esson va Ronaldson o'zlarining dars namunalarini tashkillab chiqdi [10, 11]. Ushbu dars A va B formatdan iborat. A format o'zida lug'at namoyishi va uni o'zlashtirish jarayonini mujassamlashtirib, B toifadagi dars esa bevosita A plandagi darsning uzviy davomi sifatida o'zlashtirilgan lug'atni kontekstda qo'llay olish bilan izohlanadi. B plandagi dars haqiqiy shifoxona sharoitidagi jadvallar, diagrammalar, tibbiy uskunalardan foydalanish jarayoni oid mashqlar hamda role-play shaklidagi diologik nutqlar, davolash jarayoni bilan tashkillanadi. Bu jarayonda barcha talabalar xuddi shifokorlar singari konsultatsiya berish, bemorlar bilan muloqot qilish kabi vazifalarni bajaradi. Bundan tashqari, Tibbiyot ingliz tilisi quyidagi istiqbolli loyihalar singari shakllantirilishi zarur:

- Grammatika, strukturaviy shakllar va lug'at o'zlashtirish asosiy o'rinda;
- O'qituvchilar dars jarayonida nafaqat til o'rgatuvchi, balki tibbiyot mutaxassisi sifatida bir xil majburiyatga ega.

Kursdan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarda ingliz tili ko'nikmalarini shakllantirib, ularni kasbiy ehtiyoj tufayli xalqaro test imtihoniga tayyorlashdir. Darslar oddiydan murakkabga yo'naltirilgan anatomiya, fiziologiya, farmasevtika, stomatologiya va davolash kabi yo'nalishlar uchun tibbiy amaliyotlardan tarkib topishi ahamiyatli. Agar ushbu kursdan ijobiy natijaga erishilsa, kurs davomida davriy nashrlar uchun maqola, e'lon va ilmiy hisobotlar yozish, tibbiy adabiyotlarni erkin mutolaasi kabi jarayonlar ham qamrab olinishi mumkin. Oxirgi bosqich tibbiy muammolarga bag'ishlangan videolar va sahna ko'rinishini tomosha qilish va ijro etish bilan yakunlanadi.

Natija va muhokama. Qisqa izlanishimiz davomida ma'lumotlar, muammolar, raqamlar statistikasi ishlab chiqildi. Anketa savollariga jami 87 ta, "Davolash ishi", "Pediatriya", "Stomatologiya" talabalari javob yozishgan. Quyidagi jadvalda batafsil aks ettirilgan:

№	1 – savol: Ingliz tili siz uchun qaysi maqsadlar uchun kerak? (sabablar)	%da
1	Dunyo bo'yicha asosiy muloqot tili bo'lganligi uchun, qiyinchiliklarsiz suhbatlashish uchun	17
2	Xalqaro IELTS imtihonida yuqori ball olish	12
3	Xorijiy davlatda o'qishni davom ettirish	12
4	Chet mamlakatlarida ishlash	13
5	Kelajakdagi kasbiy faoliyati, karyera yaratish	11
6	Tibbiyotga oid kitoblar, qo'llanmalar o'qigani	9
7	Dunyo bo'ylab sayohatlar, turistik maqsadlarda	7
8	Ilmiy va badiiy xorijiy adabiyotlarni mutolaasi uchun	4
9	Xorijiy mamlakatlarda malaka oshirish va tajriba almashish uchun (talabalar, professor – o'qituvchilar)	12
10	O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari magistraturasiga kirish uchun (xorijiy til bilish sertifikat)	7
11	Oylik maoshiga qo'shimcha mablag' olish	2

12	Hozirgi kundagi zamon talabi bo‘lganligi uchun	7
13	O‘z farzandlariga o‘rgatish uchun	3
14	O‘zini shaxsiy hobisi uchun	8
15	IT sohasi uchun	1
16	Xotirani kuchaytirish uchun til o‘rganish	1

Jadvaldagi miqdor umumiy respondentlar sonidan farq qilishi mumkin, sababi bir necha talabalar ko‘plab sabablarni ko‘rsatgan. Navbatdagi xulosalarimiz universitetdagi ingliz tili darslari qanday tarzda tashkillanishi bilan bog‘liq.

№	Ingliz tili amaliy mashg‘ulotlari qaysi usullar orqali tashkil etilishini istaysiz?	%da
1	Grammatik qoidalar, strukturalar, lug‘at, testlar, tibbiy terminlarga asoslangan	27%
2	Savol – javob, kichik guruhlarda ishlash	9%
3	Turli qiziqarli, didaktik o‘yinlar orqali	19%
4	Diskussiya, debatlar, gapirish ko‘nikmasini shakllantiradigan, ko‘rgazmali	3%
5	Real shifoxona tarzida tashkillangan xonada, faqat ingliz tilida	6 %
6	Kino, video, intervyular tomosha qilish	2%
7	Faqat tibbiyotga oid terminlar bilan	8%
8	Yozish malakasini shakllantiradigan	4%
8	Eshitish orqali	3%
9	Raqobat tarzda o‘tilsa	1%
10	Rag‘batlantirish bilan	2%
11	Oddiydan murakkabga qarab, elementar darajada	6%
12	Qo‘shiqlar bilan	1%
13	Individual tarzda	3%

Jadvaldagi miqdor umumiy respondentlar sonidan farq qilishi mumkin, sababi bir necha talabalar amaliy mashg‘ulotlar uchun turlicha takliflarni bergan.

Bundan tashqari, talabalar o‘rtasida darsdan so‘ng alohida qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkillanishini aytgan. Ba’zi talabalar boshqa til o‘rganganligi sababli hozirda qiyinchilikka duch kelayotganini ham ta’kidlashgan. Mutaxassislik va kasbiy fanlari tufayli uyga vazifa berilishini istamagan talabalar ham mavjud. Ayrim talabalar uchun o‘qitish metodining farqi yo‘q.

Xulosa. Ushbu izlanish xulosasi universitetimiz talabalari ishtirokidagi jamlangan ma’lumotlar bazasi bilan izohlanadi. Ishimizning asosini tibbiyot talabalarining zaruriy til ehtiyojlarini aniqlab olish tashkil etadi. Talabalar orasida ingliz tilini o‘rganish uchun yetarli sabablar borligi quvonarli holat. Akademik maqsadlarda ular tildan kitob, qo‘llanma, gazeta, jurnallar mutolaasi, xorijiy mutaxassislar ma’ruzalarida qatnashish va ularni tahlil qila olish uchun foydalanadi. Bundan tashqari, kelajakdagi kasbiy faoliyatida xorijiy davlatlarda malaka oshirish, muloqotda ustunlikka erishish, tibbiyotga oid ilmiy nashrlarni o‘qish va tushunish kabi zaruriy ehtiyojlar miqdori boshqa sabablardan ko‘ra muhimroq hisoblanadi. O‘ylaymizki, kurs yakunida ularda ushbu ko‘nikmalar shakllantiriladi.

Adabiyotlar:

1. Harmer J. English Language teaching. 5 th edition, Slovakia by Neografia, 2015, p 1.
2. Marianna Celce – Murcia, Donna M. Brinton, Margueritte Ann Snow. Teaching English as a Second or Foreign language, fourth edition, National Geographic Learning, Boston, USA, 2014, p 472.

3. Hutchinson, T, Waters, A. English for Specific Purposes: A learning – centered approach. Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1987.
4. Wood, D. Preparing ESP learners for workplace placement. ELT Journal, 2009.
5. Emery, H. Plane English, plain English. English teaching Professional, 2008.
6. Niazi, M. English for medical purposes: A case of English for specific purposes. National University of Modern Languages, Islamabad, Pakistan.
7. Tolkinovna, I. S. (2022). SEMANTIC FEATURES OF MODERN MEDICAL TERMINOLOGY. Eurasian Journal of Academic Research, 2(2), 78-84.
8. Maher, J. The development of English as an international language of medicine. Applied linguistics, 7/2, 1886.
9. Niazi, M. English for medical purposes: A case of English for specific purposes. National University of Modern Languages, Islamabad, Pakistan.
10. DuGas, B., Esson, L., Ronaldson S. Nursing foundations: A Canadian perspective. 1999.
11. Abdumanonov A. A. INTERACTIVE TEACHING METHODS IN THE PREPARATION OF MEDICAL // Eurasian Medical Journal, July 2022; number №7. <https://eamj-ism.com/media/issues/abdumanonov.pdf>